

**ABU RAYHON BERUNIY MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINING
YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.****Karimova Robiya Erkin qizi ¹**¹ *Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Arab filologiyasi talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:07.07.2025**Revised: 08.07.2025**Accepted:09.07.2025***KALIT SO'ZLAR:***Ko'hna, mehr-oqibat,
ilmiy meros,
hamjihatlilik, geodeziya,
mada-niyat, buyuk,
muhojir.**Quyidagi maqola yoshlarni vatanparvarlik
ruhida tarbiyalash maqsa-dida, buyuk olimimiz Abu
Rayhon Beruniyning ilmiy qarashlari, uning bosib
o'tgan hayot yo'llari misolida o'rnak qilib
ko'rsatilgan va ilm-fanni rivojlanishiga qo'shgan
hissasi yoritib o'tilgan.**Tillarning turlicha bo'lishiga sabab - odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-
biridan uzoq turishi, ularning har birida bir-biriga ehtiyoj tug'ili-shidir.
Abu Rayhon Beruniy*

KIRISH. O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi bilan uning milliy o'zligini anglashga katta imkoniyatlar yaratildi. Milliy davlatchilik asoslarimiz yaratilayotgan bugungi kunda tariximizning barcha sohalari qatorida ajdodlarimizdan qolgan siyosiy mero-simizni chuqur va xolisona tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Zero, o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda qurilayotgan davlat asoslarimiz tarixning bizga bergan taso-difiy imkoniyati emas. Tarixning ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarmas qonuniyatlari mavjud. Bu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davrda xalqimizning siyosiy merosini qayta tiklash va uni sayqallashtirgan, modernizatsiya etgan holda davom ettirish davr ehtiyojiga aylandi.

Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar ajdodlarimiz tomonidan boy tarix, o'ziga xos milliy davlatchilik ta'limotlari, yirik ma'naviy boyliklar yaratilganligini ko'rsatmoqda.

Madaniy meros – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui. Har bir davr va avlod o'ziga mos madaniy meros yaratadi. Madaniy merosga qarab davr va avlodlar haqida hukm chiqariladi. Madaniy meros qanday bo'lsa, davr va avlodlar ham shunday. Madaniy meros muallifi xalq ommasidir. Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi dunyoviy va islom olami mutafakkirlari al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband kabi buyuk zotlar qoldirgan ijtimoiy, ilmiy-tafakkuriy meros esa ularning iqtidori va mehnati mahsulidir.

Xususan, Ahmad Farg'oni, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi o'nlab allomalarimizning xalqaro miqyosda o'tkazilgan tavallud sanalari, ularning qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasidagi ulkan ishlar xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitibgina qolmasdan, buyuk o'tmishimizdan meros bebaho ma'naviy mulkning jahon miqyo-sida yanada chuqurroq tushunilishi va keng e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda.


Buyuk allomalarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish va yoshlar ongida ajdodlar merosiga hurmat ruhini kuchaytirish va ularning ota-bobolarimizga munosib avlod bo'lib kamol topi-shida muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Azaldan yurt tinchligi va obodligi, yangi avlodning ajdodlar ruhiga sadoqati, ulardan qolgan merosni avaylash va boyitishga safarbar qilib tarbiyalash yo'lida hormay-tolmay mehnat qilib, yashab kelayotgan xalqimizning buyuk farzandlari asrlarosha jahon taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shib kelganlar. Ayniqsa, o'rta asrlarda yurtimizdan o'nlab buyuk olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiat va jami-yatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O'rta Osiyo xalqlari-ning emas, balki butun dunyo xalqlarining ma'naviy mulkidir.

2014 yilning 15-16 may kunlari bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiya O'rta asr Sharq ilm-fani taraqqiyoti, Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy merosi va uning bugungi sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalarini yori-tishga qaratilgandi.

Insoniyat dunyoga keltirgan eng buyuk aql sohibi G'arb da'vo qilganidek Eynshteyn emas, balki, Abu Rayhon Beruniydir.

Beruniy tibbiyot, falsafa, kimyo, fizika, matematika, geologiya, astronomiya, tarix, dorishunoslik, geografiya, tarjima fanida olim hamda geodeziya ilmining asos-chisidir.

U 1000 yil avval Yer shari o'z o'qi atrofida aylanishini birinchi bo'lib aytgan shaxsdir. Zamonaviy o'lchash uskunolari hali kashf qilinmasidan oldin yer atrofini o'lchab, 99,7 % foiz to'g'ri topgan.



Abu Rayhon Beruniy – qomusiy olim, oʻrta asrlarning buyuk daholaridan biri. Falakiyot, fizika, riyoziyot, ilohiyot, maʼdanhunoslik kabi fanlarni puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi bilan uning nomi dunyoning buyuk siymo-lari qatoridan joy olgan.

Ulugʻ alloma Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy shaxsi haqida quyidagi maʼlumotlar barchamizga maʼlum. Beruniy 973-yil 4-sentabrda qadimgi Kat shahrida tavallud topgan. Uning nasl-nasabida “berun” soʻzi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “Tashqi shaharda yashovchi kishi” maʼnosini bildiradi.

Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq kuchli boʻlgan. Mashhur olim Abu Nasr ibn Iroq Mansur qoʻlida taʼlim olgan. Ibn Iroq falakiyot va riyozotga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bagʻishlagan.

Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shugʻullanib borgan. Sharqning boy fan va madaniyatini puxta oʻrganib, yunon ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik olim boʻlib yetishgan. Beruniy shoir, adabiyotshunos ham boʻlgan. Keyinchalik, Hindistonda sanskrit tilini oʻrgangan.

Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, soʻgʻdiy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini oʻrgangan. Beruniy oʻz asarlarini asosan arab va fors tillarida yozgan.

Ayniqsa, arab tilini juda mukammal egallagan va kuchli ilmiy asarlarini ushbu tilda yozgan. Filologiya boʻyicha bir tildan boshqasiga tarjima qilishning tabiiy-ilmiy terminologiyalari qoidalarini ishlab chiqqan.

Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois, 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur boʻlgan va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon

shahrida muhojirlikda yashagan. Keyinchalik, qadimgi Ray shahriga borib, 998-yilda yana Jurjonga kelgan va bu yerda o'zining ikkinchi ustoz tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim olishga intilgan. Beruniy "Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya" ("*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*") asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. "Osor al-boqiya" Beruniyga juda katta shuhrat keltirib, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'r-satdi.

Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozgan. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirilgan.

Xorazmshoh tomonidan katta izzatikrom bilan qabul qilingan. Beruniy Urganchda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatgan. Beruniy shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashib brogan.

Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olinishi sababli Beruniy hayotida o'zga-rishlar sodir bo'lgan. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketilgan. Beruniyning 1017-1048 yillarda G'aznada kechir-gan hayoti, bir tomondan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'lgan. Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari "Tahdid nihoyot al-amoniyali tas'hidi masofat almasokin" ("*Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash*", "*Geodeziya*") 1025 yilda yozib tugatilgan. Beruniyning "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asari ham 1029-yil G'aznada yozilgan. Asarning forsha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astro-nomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar beril-gan.

«Beruniy Yer aylanasi o'lchashda qo'llangan uslub bugungi kundagi zamonaviy texnikalar qo'llab aniqlangan natijadan bor-yo'g'i 10,44 mil farq qiladi, xolos», – deydi amerikalik mashhur olim o'zining "History Today" jurnalining 2013-yil 12-sonida nashr etilgan "Amerikani kim kashf etgan?" maqolasida.

Beruniyning "Hindiston" nomli mashhur yirik asari "Tahqiq mo li-l-Hind in ma'quda fi-l-aql av marzula" ("*Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi*") 1030-yilda yozilgan bo'lib, bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baho-langan

Akademik V. R. Rozen "Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q", deb baho bergan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo'lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o'rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hind-istonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishga imkon bergan.

“Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G’aznaviy vafot etgan va uning o’rnigataxtga o’g’li Mas’ud o’tirgan. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshi-lingan.

Astronomiyaga oid “Mas’ud qonuni” asarini sulton Mas’udga bag’ishlanib yozilgan. O’sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: “Mas’ud qonuni” kitobi matematika va astronomiya bo’yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o’chi-rib yuborgan”.

Beruniy o’z asarlari ro’yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan.

Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo’q asar hisob-lingan. Beruniyning oxirgi asari - “Dorivor o’simliklar haqida kitobi”ning qo’l-yozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topilgan. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur bo’lib, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o’sadigan dorivor o’simliklarning to’la tavsifini bergan.

Beruniy yosh avlodlarga katta ilmiy meros qoldirgan. Beruniyning o’z davri ilmfanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko’rsatib o’tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmokognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratgan va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qilib, badiiy ijod bilan ham shug’ullanib she’rlar yozgan. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonni davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko’paytirish asoslari”, “Ptolemey — Almagest”ning sanskritchaga tarjimasi”, “Foydali savollar va to’g’ri javoblar”, “Farg’oniy — Elementlariga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyotkorlik”, “Oq kiyimlilar va karmatlar haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to’plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir. Beruniyning asarlari Sharq madaniyatining rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan bo’lib, so’nggi asarida arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo’riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan.

XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioann Bar Ebrey (1226-1286) Beruniyga shunday baho bergan: *“O’sha o’tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o’tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy o’tmish ilmlarida shuhrat qozongan. U matematika ilmlarida mutaxassis bo’lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratgan. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashagan, hind faylasuflaridan ularning san’atini o’rgangan va ularga yunon falsafasini o’rgatgan. Uning asarlari nihoyatda ko’p, yetuk va nihoyatda ishonch-lidir. Bir so’z bilan aytganda, u o’z davrida, undan so’ng va hozirga qadar ham-kasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo’lmagan”*.

O’zimizning yurtimizda ham Beruniyning ijodiga katta e’tibor berib kelin-moqda. H.M. Abdullaev, I. M. Mo’minov, V. Yu. Zohidov, Ya. G’. G’ulomov, U. Karimov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yarat-ganlar. Toshkentda Beruniyga bag’ishlangan qator Xalqaro ilmiy konferen-siyalar o’tkazilgan. Birinchi bor

Beruniyning “Qadimgi yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mas‘ud qonuni”, “Geodeziya”, “Saydona” kabi asosiy asarlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p tomli saylanma asarlari o‘zbek va rus tillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etilgan. Bundan tashqari, fan sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti ta‘sis etilgan.

Beruniyning boy ilmiy merosi yurtimizda va undan tashqarida chuqur o‘rga-nilmoqda. Uning hayoti va ijodi bo‘yicha nafaqat olimlar balki, yozuvchi va san‘at-korlar tomonidan e‘tiborini tortib kelmoqda. Shu qatorda, dunyoda birinchi marta yurtimizda topilgan mineralga Beruniy nomi qo‘yilgan. Beruniyga atalib Qoraqol-pog‘iston Respublikasida, Toshkent va Xiva shaharlarida haykallar o‘rnatilgan.

Yoshlar bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri bu o‘z mamlakatining kelajakdagi vatanparvarini tarbiyalashdir. Yoshlarni ajdodlarimizga munosib avlod etibtarbiyalash va ularda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish hamda bu bora-dagi targ‘ibot ishlarini tizimli tashkil etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash kerakki, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi, yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarini shakllantirishdan iborat.

Beruniy merosini nafaqat milliy OAV balki, xalqaro media maydonda keng targ‘ib qilish maqsadida tashkil etish zarur. Natijada jahon axborot maydonidagi O‘zbekistonning ilmiy boyliklariga oid nufuzi oshirish mumkin.

Beruniy qoldirgan ilmiy merosini o‘zbek tilida va BMT tashkilotining barcha rasmiy tillarida turli zamonaviy multimedia mahsulotlarini tayyorlash va ularni xorijdagi chet el jurnalistlar hamda xalqaro jamoatchilik vakillari tomonidan keng tarqatish ishlarini olib borish zarur.

Beruniy merosiga doir virtual muzeyni o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida tashkil etish kerak. Muzeyda Beruniyning original qo‘lyozmalari, ularning olimlarimiz tomonidan qilingan tahlili va Beruniy asarlari kutubxonasi o‘rin olsa aqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu Beruniyning jahonga tanitishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rayev B.R. Abu Rayhon Beruniy.- T.: 2015.- 31 b.
2. Yoqubov O.D. Ko‘hna dunyo.- T.: 2018.- 383 b.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: 2000.- 736 b.
4. Begmuradovich, S. A. (2025). EINSATZ VON INFORMATIONS TECHNOLOGIE IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. СОБРЕМЕННОЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(3), 97-102.

5. Bekmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Taʼlim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(2), 180-184.

6. Begmuradovich, S. A. (2023). INTEGRATION OF EDUCATIONAL PROCESS FORMS. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH, 2(2), 20 23.

7. Суяров, А. Б. (2025). ТЕХНОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОН НОГО ОБУЧЕНИЯ. ZAMIN ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(2), 9-15.

8. Суяров, А. Б. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI Volume 2 Issue 7 [March 2025] 2(2), 217-225.

9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/beruniy-uz>.

10. [https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abu-rayhon -beruniy](https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abu-rayhon-beruniy) 973-1048

